“LISON UT-TAYR” DOSTONIDAGI HIKOYATLAR TAVSIFI VA TASNIFI

Norqobilova Oydin
Toshkent davlat o‘zbek tili adabiyoti universiteti
norqobilova4@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida keltirilgan hikoyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari, mazmun-mohiyati va tasnifi tahlil qilinadi. Dostondagi hikoyatlar qushlar timsolida insonning ma’naviy kamoloti, nafsni yengish, sabr-qanoat, ishq, sadoqat, adolat, ilm va komillikka intilish kabi g‘oyalarni yoritishda muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, hikoyatlar mavzu va mazmuniga ko‘ra tasniflanib, ularning tasavvufiy-falsafiy qarashlarni ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi. Hikoyatlarning doston kompozitsiyasidagi vazifasi va Navoiyning pand-nasihat, ramz hamda badiiy obrazlardan foydalanish mahorati ham yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Lison ut-tayr”, hikoyat, tasavvuf, ramz, majoz, qushlar timsoli, komillik, nafs, ishq, ma’naviy kamolot.*

Annotation. *This article analyzes the stories included in Alisher Navoi’s epic poem Lison ut-Tayr, focusing on their artistic and aesthetic features, thematic content, and classification. The stories presented in the work serve as important literary devices for expressing ideas about human spiritual development, overcoming worldly desires, patience, devotion, love, justice, knowledge, and the pursuit of spiritual perfection. The study examines the plot structure, character system, symbolic and allegorical meanings of the stories, as well as their connection with the central ideas of the epic poem. In addition, the stories are classified according to their themes and content, and their role in expressing Sufi-philosophical ideas is explored. Particular attention is paid to the function of the stories within the composition of the epic and to Navoi’s skillful use of symbolism, allegory, and literary imagery.*

Keywords: *Alisher Navoi, Lison ut-Tayr, stories, Sufism, symbolism, allegory, bird imagery, spiritual perfection, worldly desires, love, spiritual development.*

Аннотация. *В данной статье анализируются притчи и рассказы, представленные в поэме Алишера Навои “Лисон ут-тайр”, с точки зрения*

их художественно-эстетических особенностей, тематического содержания и классификации. Рассказы, включённые в произведение, выступают важным художественным средством раскрытия идей духовного совершенствования человека, преодоления нафса, терпения, преданности, любви, справедливости, знания и стремления к духовному совершенству. В исследовании рассматриваются сюжетная структура рассказов, система образов, их символическое и аллегорическое содержание, а также связь с основными идейно-философскими концепциями поэмы. Кроме того, рассказы классифицируются по тематике и содержанию, раскрывается их роль в выражении суфийско-философских взглядов автора. Особое внимание уделяется композиционной функции рассказов в структуре поэмы и художественному мастерству Алишера Навои в использовании символов, аллегорий и образных средств.

Ключевые слова: *Алишер Навои, "Лисон ут-тайр", рассказы, притчи, суфизм,*

Kirish. Navoiy hayoti va ijodiy merosini ilmiy asosda o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligida XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Bu boradagi dastlabki izlanishlar taniqli o‘zbek ijodkori professor Abdurauf Fitratga qalamiga mansubdir. Navoiyshunoslik fani Alisher Navoiy ilmiy biografiyasini yaratishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. "Lison ut-tayr" hazrat Navoiy umrining so‘nggi yillarida, demakki, daho ijodkor badiiy tafakkuri va shaxsiyati kamolga yetgan bir pallada, shoir ma'naviy-ma'rifiy faoliyatiga adabiy xulosa sifatida dunyoga kelgan buyuk asar, shoir ijodining cho‘qqisi hisoblanadi.

Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. "Lison ut-tayr" V. Zohidov, Oybek, Y.E Bertels, I.Sulton, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Mallaev, S.G‘anieva A.Abdug‘afurov, Y.Ishoqov singari yirik navoiyshunoslar tomonidan muayyan ilmiy masalalar yuzasidan tadqiq etilgan. Asar qator Sharq va yevropa tillariga tarjima qilingan. Sh. Eshonxojayev dostonning tanqidiy matnini, Sh. Sharipov "Lison ut-tayr" nasriy bayonini ishlab chiqqan.

Tahlil va natijalar. "Lison ut-tayr" (arab. – "Qush tili") Alisher Navoiyning dostoni, o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek tilining muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Asar 1498 – 1499-yillarda fors shoiri Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari ta'sirida yozilgan. Navoiy asar syujeti va bosh g‘oya xususida Attorga izdoshlik qilgan. Ulug‘ fors-tojik shoiri Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoni Navoiy dostonining yaratilishiga sabab bo‘lgan. Farididdin Attor (1119-1193) jahon she'riyati, falsafasiga katta

hissa qo‘shgan ulug‘ shoir va mutafakkir, tasavvuf olamining yorqin namoyandasidir. Manbalarda keltirilishicha, Attor yuzdan ortiq asar muallifidir. Biroq ulardan ayrimlarigina bizgacha yetib kelgan. Uning “Asrornoma”, “Ilohiynoma”, “Musibatnoma”,“Muxtornoma”, “Xusravnoma”, “Mantiq ut-tayr” nomli asarlari juda mashhurdir. Alisher Navoiyning Attor ijodiy merosiga ixlosi katta bo‘lgan. Shoir Attorning ko‘pgina asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Ular orasida “Mantiq ut-tayr” shoirga o‘zgacha ta’sir ko‘rsatgan. Navoiy bolaligida sevib o‘qigan, qattiq ta’sirlangan va hayratga tushgan Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga javoban “Lison ut-tayr” dostonini yozadi. “Lison ut-tayr”ning boshlanishida maxsus bobda shoir Attor asarlari va ta’limotini yuqori baholaydi. Bunda Navoiy dunyo dengiz va konlarida nimaiki bor bo‘lsa bularning barchasi Attor do‘konida bor, deydi. Bu do‘konda turli-tuman dardlarga shifo bo‘luvchi dori-darmonlar borligi aytiladi. Bu dori-darmonlar Attorning ijod mahsullari bo‘lib chiqadi va ular insonni ma’naviy tubanlikdan qutqarishiga ishora qilinadi. Asarda Navoiy Attor ruhidan madad olib, o‘z dostonini yaratganini va ustozidan minnatdorligini aytadi [58]. Asardagi boblar alohida epizodlardan, savol-javoblardan, kichik hajmli hikoya va masallardan tashkil topgan. Asardagi hikoyalarda Navoiy buyuk hikoyanavis sifatida ko‘zga tashlanadi. “Lison ut-tayr” Alisher Navoiyning 20 jildli Mukammal asarlar to‘plami 12-j. (T., 1996) dan o‘rin olgan. “Lison ut-tayr” dostonining tili Navoiyning boshqa dostonlari, she’riy asarlari tiliga nisbatan anchagina sodda va ravondir. Asardagi murakkab falsafiy mazmun, majoziy tasvir vositalarining keng qo‘llanganligi til va uslubni yengil, o‘ynoqi, jonli ham tushunarli bo‘lishini taqozo qilgan. Navoiy xalq og‘zaki ijodi, undagi syujetlar, hikmatli so‘zlar, ta’birlardan, hazil-mutoyibalardan unumli foydalangan. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari juda ko‘p tillarga tarjima qilingan, jumladan, birinchi marotaba polyak tiliga polshalik mutaxassis Yanuj Kjijovskiy tomonidan tarjima qilinib, kitob shaklida chop etildi va Polsha kutubxonalariga tarqatildi va ushbu nashrning bir nusxasi muallifning iltimosiga binoan Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasiga sovg‘a tariqasida taqdim etilgan. Ana shunday daholardan biri so‘z mulkining sultoni mir Alisher Navoiy hazratlaridir[59]. Dostonda 65 ta hikoyat keltirilgan bo‘lib, ularning 51tasi Navoiyning o‘zining ijodi bilan bog‘liq, qolgani esa Attor dostonidan olingan hikoyatlardir. Hikoyatlarning jami bayt miqdori (1800 baytga yaqin) doston umumiy hajmining teng yarmini tashkil qiladi. Ushbu hikoyatlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib tasniflash mumkin:

[58]Фариддин Аттор. Мантиқ ут тайр. – Т., 2006. – Б.4.
[59] Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –T.: Tamaddun, 2018. – B.169.

1. Hudhud dostondagi qushlarni Simurg‘ yo‘liga targ‘ib qilib, ularga murojaat qilayotgan paytda aytilgan hikoyatlar. Bu hikoyatlar shoirning ijtimoiy fikrlarini umumlashtirib bayon qilishga xizmat qiladi. Undagi timsollar ham ijtimoiy-didaktik ahamiyat kasb etgan bo‘lib, ularga yashil to‘n kiygan soxta darvesh, mazxaraboz hindu va bo‘yra shohi haqidagi, uquvsiz bog‘bon haqidagi, soxta zargar haqidagi, musht yeb kun ko‘ruvchi tekinxo‘r haqidagi, mechkay pahlavon haqidagi, vayronada ganj qidirgan kishi haqidagi, giyohvand darvesh haqidagi, suvga cho‘kib ketgan xasis haqidagi va hajga bormagan savdogar haqidagi hikoyatlarni kiritish mumkin.

2.Tarixiy shaxslar bilan bog‘liq ibratli fikrlar aks etgan hikoyatlar. Bular qatoriga payg‘ambarlar va valiylar to‘g‘risidagi hikoyatlar kiradi. Jumladan, Odam Safiyulloh, Ibrohim alayhissalom, Sulaymon alayhissalom bilan bog‘liq, Muhammad payg‘ambar, to‘rt nafar sahoba - Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali (r.a.) haqidagi hikoyatlar; tasavvuf namoyandalaridan Xoja Abdulloh Ansoriy, Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Abusaid Abuxayr, Abulhasan Xaraqoniy, Abu Bakr Nishopuriy, Mansur Halloj, Abul Abbos Qassob Omuliy, Sufyon Suriy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso va Xoja Abu Nasr, tilshunos olim Asma‘iy, Mahmud va Ayoz to‘g‘risidagi hikoyatlarini keltirish mumkin.

3. Keyingi turdagi hikoyatlarga muallifning falsafiy-tasavvufiy fikrlarini bayon etish uchun keltirilgan hikoyatlarni kiritish mumkin. Bularga Simurg‘ haqidagi, uning Chin shahriga tushgan pati to‘g‘risidagi, gulxanda yongan soxta oshiq haqidagi, husnini namoyish qilishga ko‘zguni vosita qilgan shoh haqidagi, shohga sovg‘a tayyorlovchi oshiqlar haqidagi, shohga oshiq bo‘lib zindonda yotishga va itboqarlikka tayyor oshiqlar to‘g‘risidagi, Sidra daraxti shoxidagi qushlar to‘g‘risidagi, Iskandarning elchilikka borganligi haqidagi, Shayx San’on haqidagi, Arastuning shogirdi to‘g‘risidagi, g‘am chekuvchi misrlik to‘g‘risidagi, Majnun al- Haq, fil va ko‘rlar xususidagi, ikki shatranjchi haqidagi, hayrat zabun etgan ma’shuq yigit to‘g‘risidagi, parvonalar va sham’i haqiqiy zikridagi, Majnun haqidagi, devona oshiq va uning oqil ma’shuqi to‘g‘risidagi, Qaqnus haqidagi, podshohdan hech nima so‘ramagan darvesh to‘g‘risidagi va yiqilgan devor haqidagi hikoyatlar misol bo‘la oladi. Ammo Sh.Sharipov dostondagi hikoyatlarni tematika jihatdan tasniflaydi:

1. Ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mazmundagi hikoyatlar.
2. Din va tasavvuf vakilari, ularning ba’zi muhim qarashlariga oid hikoyatlar.
3. Axloqiy-ta’limiy hikoyatlar.

4. Ishq-muhabbat mavzusidagi hikoyatlar[60].

Doston – 193 bobdan iborat. Hajman 3 ming 598 bayt, ya'ni 7 ming 196 misrani tashkil etadi. Doston an'anaga muvofiq muqaddimaviy boblar bilan boshlanadi. Muqaddima 13 bobdan iborat bo'lib, uning dastlabki bobi Alloh hamdiga bag'ishlangan. Xususan, dostondagi an'anaviy hamdning Jon qushi chun mantiqi roz aylagay, Tengri hamdi birla og'oz aylagay,– degan misralar bilan boshlanishi uning qushlar tili vositasida yozilajak asar bo'lishiga ishora qiladi. Shuningdek, shoir o'z salafi Attor ta'rifini bayon etishda (Qaqnus qushi haqidagi rivoyatning keltirilishi), zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaro madhi bilan bog'liq o'rinlarda ham qush tili bilan bog'liq iboralardan foydalanadi. 2-bobi munojotni o'z ichiga oladi. Umuman, munojot yalinish, yolvorish, ya'ni yaratganning qoshida gunohkor deb hisoblashi bilan bog'liq fikrlar aytilgan. Dostonning 3-4-boblari payg'ambar rasuli akram madhi va me'roj tunini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari 5-12-boblari to'rt xalifa – chahoryorlar tavsifiga bag'ishlangan. Navoiy dastlab har bir xalifaga ta'rif beradi, so'ngra chahoryorlar hayotidan muayyan voqea aks etgan hikoyatlarni keltirib o'tadi.

Dostonning o'n uchinchi bobi buyuk forsigo'y adib Farididdin Attor madhiga bag'ishlangan. Navoiy so'z o'yini vositasida shoir taxallusiga majoziy nisbat berib, butun olamda boyliklar, dengiz va konlardagi dur-u gavharlar qancha bo'lsa ham undan foydalangan. Shoir o'z salafi Attor ta'rifini bayon etishda (Qaqnus qushi haqidagi rivoyatning keltirilishi), zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaro madhi bilan bog'liq o'rinlarda ham qush tili bilan bog'liq iboralardan foydalanadi. Shuningdek, Attor asarlarini sanab o'tgan Navoiy o'zi javob yozadigan dostonning Attor dostoniga munosib javob bo'lishiga umid bildiradi. Shoir ushbu asari orqali Attorga izdoshlik qilgan.

Dostonning asosiy qismi bosh qoliplovchi qissa: jahondagi barcha qushlarning yig'ilib, martaba va fazilatlariga ko'ra joy talashish voqeasidan boshlanadi. Dostonda keltirilishicha, bir gulistonning turli qushlari majlis qurmoq uchun yig'iladilar. Qushlar o'zlariga mos emas, balki duch kelgan o'rinni egallaganliklari sababli orada nizo chiqadi va uni bartaraf etish uchun odil va oqil yo'lboshchiga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shunda Hudhud Simurg' daragini aytadi. Hudhud Simurg'ni maqtovlardan yiroq, barcha qushlar holidan ogoh bir shoh sifatida ta'riflaydi. Qushlar bu shohdan bexabar bo'lsalar-da, u har doim qushlar bilan birgadir. Dostonda keltirilishicha, dunyo qushlariga shoh bo'lgan Simurg'ning laqabi Anqo bo'lib, u Kof tog'ida yashaydi. Uning parlari rang-

[60] Шарипов Ш. "Лисонут тайр" ҳақиқати. – Т.: Ма'навият, 1998. – Б.14.

barang bo‘lib, har bir rangida yuz xil naqsh bor, bu naqsh ranglarni aql idrok eta olmaydi. Hudhudning aytishicha, har bir jonzot ana shu shohga yaqin bo‘lmog‘i va u sari intilmog‘i lozim. Qushlarda Simurg‘ga katta havas uyg‘onadi va ular Simurg‘ni izlab yo‘lga chiqishga qaror qilishadi. Hudhuddan bu yo‘lda rahbarlik qilishni iltimos qiladilar. Hudhud ham o‘z navbatida To‘ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kaklik, Durroj, Kabutar, Shohboz, Shunqor kabi qushlarga murojaat qilib, ularni yo‘lga otlanishga da’vat qiladi. Qushlar yo‘lga ravona bo‘ladilar. Ammo bu yo‘lda qiyinchiliklar anchagina edi. Keltirilgan hikoyatlar zamirida kishilarning to‘g‘ri maqsadlari yo‘lidan qaytmasligi, har bir kasbni puxta egallashi va kasbini yaxshi bilmaslik natijasida oxirida yomon oqibatlarga olib kelishini uqtiradi. Masalan, uquvsiz bog‘bon haqida. Bu inson bog‘bonlik san’atidan bexabar bo‘ladi. U hech qanday daraxtlarga payvand qilishni, shirin mazali meva olishni va ularni qanday parvarishlashni bilmasdi. Faqat u bog‘ aro xashak terishni yaxshi bilardi. Shuning uchun ham uni xashakchi deyish kerak edi. Shunday mazmunda, u umrini o‘tkazar edi. Unga o‘rtoqlari shu ishni tashlab, boshqa ish qil deb tavsiya qilardi, lekin ularning gaplariga quloq solmadi. Bir kuni bog‘da tok kesib yurrganda, alal oqibat ilon chaqib o‘ldirdi. Xulosa qilganda, har bir kasbni ustasi bo‘lish uchun insonda yuksak darajadagi bilim va malaka kerak bo‘ladi.

Xulosa. Dostondagi hikoyatlar, uning mazmun samaradorligini yuksak pog‘onaga olib chiqqan. Ushbu hikoyatlar doston ichidagi xulosaviy voqeaband asardir. Navoiy o‘z ustoziga ergashgan holda badiiy kashfiyot sanalgan, falsafiy dostonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фариддин Аттор. Мантиқ ут тайр. – Т., 2006. – Б.200.

2. Шарипов Ш. “Лисонут тайр” ҳақиқати. – Т.: Ма’навият, 1998. – Б.14.

3. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –T.: Tamaddun, 2018. – B.459.

4. www.ziyo.com.uz.